YOSHLARNI SHAXMAT O‘RGATISH JARAYONIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xoliqov Umidjon Qo‘chqarovich, Guliston davlat instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi. v.b dotsenti
e-mail: shaxmat197527@gmail.ru
Sariboyev Nurali Abdunazarovich, Guliston davlat instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: sariboyevnurali5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxmat o‘yinining shaxsning intellektual rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, diqqat, xotira va strategik tafakkurini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shaxmat o‘yini intellektual sport turi sifatida o‘quvchilarning aqliy salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: shaxmat, intellektual rivojlanish, mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, strategik tafakkur, ta’lim

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ ШАХМАТАМ

Аннотация: В данной статье научно анализируется влияние шахмат на интеллектуальное развитие человека. В современной системе образования одной из важных задач является развитие логического мышления, внимания, памяти и стратегического мышления учащихся. Шахматы, как интеллектуальный вид спорта, служат важным инструментом для повышения умственного потенциала учащихся, формирования самостоятельного мышления и навыков принятия решений.

Ключевые слова: шахматы, интеллектуальное развитие, логическое мышление, память, внимание, стратегическое мышление, образование

PEDAGOGICAL BASIS OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT IN THE PROCESS OF TEACHING YOUTH IN CHESS

Abstract: This article scientifically analyzes the impact of chess on the intellectual development of a person. In the modern education system, the development of students' logical thinking, attention, memory and strategic thinking is one of the important tasks. Chess, as an intellectual sport, serves as an important tool

for increasing students' mental potential, forming independent thinking and decision-making skills.

Keywords: chess, intellectual development, logical thinking, memory, attention, strategic thinking, education

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida shaxmat sportining tizimli ravishda rivojlanib borayotgani, ushbu yo‘nalishda davlat siyosati darajasida keng ko‘lamli islohotlarning amalga oshirilayotgani hamda xalqaro maydonlarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilayotgan iqtidorli shaxmatchilar va jahon chempionlarining yetishib chiqayotgani mazkur intellektual o‘yinning milliy zaminimizda chuqur tarixiy, madaniy va ijtimoiy ildizlarga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan yondashilganda, shaxmat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan Hindiston va Xitoy kabi davlatlar qatorida O‘zbekistonning ham shaxmat vatani sifatida e’tirof etilishiga asos bo‘luvchi tarixiy va madaniy omillar mavjudligi ilmiy jihatdan asoslashni talab etadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanib borishi sharoitida jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish strategik ahamiyat kasb etuvchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, analitik tafakkuri rivojlangan, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondasha oladigan hamda asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalariga ega bo‘lgan barkamol avlodni shakllantirishdan iboratdir. Shu bois, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlash, ularning tafakkur doirasini kengaytirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini izchil shakllantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. [3-29].

Intellektual rivojlanish murakkab ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, u shaxsning mantiqiy fikrlash, tahliliy mushohada yuritish, muammoli vaziyatlarni samarali hal etish, xotira va diqqat jarayonlarini boshqarish, shuningdek, ijodiy tafakkurni rivojlantirish kabi aqliy faoliyat turlarining uzviy integratsiyasini o‘z ichiga oladi. Mazkur sifat va ko‘nikmalar nafaqat o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda, balki shaxsning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatida ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda turli xil pedagogik vositalar, innovatsion yondashuvlar va intellektual o‘yinlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, shaxmat o‘yini o‘zining mantiqiy-strategik xususiyatlari, kombinator tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlari hamda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishdagi o‘rni bilan ajralib turadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxmat mashg‘ulotlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini sezilarli oshirishga xizmat qiladi hamda ularning kognitiv faoliyatini faollashtirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi [4-128].

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi yoshlarni shaxmat o‘rgatish jarayonida ularning intellektual rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik asoslarni tizimli ravishda o‘rganish, ushbu jarayonning nazariy-metodologik poydevorini aniqlash hamda ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar majmuasini ishlab chiqishdan iboratdir. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida shaxmat o‘yinining ta’limiy imkoniyatlari orqali o‘quvchilarning mantiqiy, tahliliy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik mexanizmlarni aniqlash va amaliyotga tatbiq etish masalalari ham ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi.

Tadqiqotning vazifalari. Belgilangan maqsadga erishish jarayonida quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni hal etish nazarda tutiladi:

– yoshlarni shaxmat o‘rgatish jarayonida intellektual rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan pedagogik amaliyotning hozirgi holatini kompleks tahlil qilish, mavjud tajribalarni o‘rganish hamda ushbu jarayonning o‘ziga xos pedagogik va psixologik imkoniyatlarini aniqlash;
– shaxmat o‘rgatish jarayonida intellektual rivojlanishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarning didaktik xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, ularning samaradorlik darajasini asoslash hamda qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish;
– o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda shaxmat o‘yinidan foydalanishning metodik modelini yaratish va uning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish;
– shaxmat asosidagi mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llarini ishlab chiqish;
– ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda ularning pedagogik samaradorligini baholash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda ta’lim tizimini izchil modernizatsiya qilish, uning nazariy-metodologik hamda pedagogik poydevorini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar so‘nggi yillarda tizimli va kompleks yondashuv asosida olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ta’lim jarayonining mazmuniy va tashkiliy komponentlarini yangilash, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, B. Abdullaeva, B. Adizov, G. Akramova, G. Boymurodova, N. Dilova, G. Najmiddinova, X. Nazarova, R. Nurjanova, R. Safarova, N. Tosheva, Z. Xolmatova, G. Hasanova, O. Karxonova hamda Sh. Toshpulatova kabi olimlarning ilmiy ishlarida ta’lim jarayonining turli jihatlari, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish mexanizmlari hamda ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari chuqur tahlil etilgan. [9-53].

Shu bilan bir qatorda, ta’lim jarayoniga shaxmat o‘yinini integratsiya qilish, uning didaktik hamda pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ayniqsa, yoshlarning intellektual rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar ham muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Bu boradagi

ilmiy izlanishlar M. Muxiddinov, A. Mazmudov, M. Xaylaev, R. Qosimjonov, Eson Ali, H. Turdialiyev, B. Xolmirzaev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilib, ularning ishlarida shaxmat nazariyasi va amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari, mazkur o‘yinning ta’lim tizimidagi funksional o‘rni hamda o‘quvchilarning mantiqiy va strategik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. [10-79].

Bundan tashqari, yoshlarning psixologik xususiyatlari, ularning intellektual faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish masalalari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari tomonidan ham keng miqyosda o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar V. Averin, N. Belitskaya, V. Belich, V. Bibler, V. Gagay, B. Geydman, E. Gorlova, Dayana Xalpern, N. Dik, A. Zak, M. Kalugin, N. Novotortseva, I. Krotov, G. Levitas, N. Leonova, L. Lixtarnikov, A. Markova, M. Matyuxina, S. Spiridonova, M. Mauerman, G. Tsukerman, O. Tarasova, E. Revin, V. Knyazeva, Ya. Gabbazova, G. Nesis, G. Alekseev, G. Kasparov, A. Zarrash, A. Kotov, N. Krogius hamda T. Petrosyan kabi olimlarning ilmiy ishlanmalarida o‘z aksini topgan bo‘lib, ularda shaxsning intellektual rivojlanish qonuniyatlari, kognitiv jarayonlarning shakllanish mexanizmlari hamda ularni boshqarishning nazariy asoslari turli konseptual yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. [5-267].

Xorijiy ilmiy maktablar doirasida ham yoshlarning tafakkur faoliyatini rivojlantirish, ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish hamda shaxmat ta’limini pedagogik jihatdan takomillashtirish muammolari alohida ilmiy izlanishlar obyekti sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan, E. Fromm, M. Mauerman, A. Maslou, Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templ, R. Zuzoueu, Robert Fergyuson, Florian Vaulon, A. Bisno, Ernst Bensh, Uve Bensh, Dj. Bul, A. Inizian, J. Kalmi, S. Frene, P. Kergomar, J. Piaje hamda S. Bendjamin kabi olimlarning tadqiqotlarida yoshlarning tafakkur jarayonlarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda shaxmatni o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida chuqur tahlil etilgan. [10-18].

Tadqiqot metodologiyasi.. Intellektual faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘yinlar tizimida shaxmat alohida o‘rin egallaydi, chunki u inson tafakkurining chuqur qatlamlarini faollashtiruvchi, strategik va analitik fikrlashni shakllantiruvchi hamda kognitiv jarayonlarni kompleks ravishda rivojlantiruvchi noyob vosita sifatida tarixan e’tirof etib kelinmoqda. Shaxmat o‘yini jarayonida o‘yinchi tomonidan har bir yurishning oldindan puxta rejalashtirilishi, mavjud vaziyatning ko‘p tomonlama tahlil qilinishi hamda ehtimoliy natijalar orasidan eng maqbul qarorning tanlab olinishi o‘z navbatida mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash va strategik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim psixik jarayonlarning faollashuviga olib keladi. [6-48].

Shaxmatning boshqa sport turlaridan tubdan farqlanuvchi jihati uning murakkab tizimli tuzilishga ega ekanligi hamda ko‘p qirrali intellektual faoliyatni talab etishidadir. Mazkur o‘yin nafaqat raqobat elementi mavjud bo‘lgan sport turi, balki shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shaxmat bilan muntazam

shug‘ullanish jarayonida o‘quvchilarda sabr-toqat, qat’iyatlilik, mustaqil fikrlash, mas’uliyat hissi kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. Shu bilan birga, ushbu o‘yin o‘quvchilarning matematik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ham muhim didaktik imkoniyatlarga ega bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar natijalari shaxmat bilan muntazam shug‘ullanuvchi o‘quvchilarda diqqat va xotira ko‘rsatkichlarining yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi [7-330].

So‘nggi yillarda shaxmat o‘yinining ta’lim tizimidagi ahamiyati sezilarli darajada ortib, ko‘plab mamlakatlarda u o‘quv dasturlariga integratsiya qilinayotgan samarali pedagogik vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shaxmat mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda strategik fikrlash, vaziyatni chuqur tahlil qilish hamda muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalari izchil shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida ularning nafaqat ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga, balki kundalik hayot faoliyatida ham asoslangan va oqilona qarorlar qabul qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, shaxmat o‘yini o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘quv faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichlarida shaxmat mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish o‘quvchilarning diqqat va xotira jarayonlarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlash faoliyatini faollashtirish nuqtai nazaridan yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida shaxmat o‘yinining o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o‘rganilib, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi. Shu bilan birga, shaxmat o‘yinidan foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, xotirasi va diqqatini rivojlantirish imkoniyatlari tizimli ravishda yoritilib, tegishli ilmiy xulosalar shakllantiriladi [7-331].

Shaxmat o‘yini o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash hamda analitik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda o‘ziga xos didaktik hamda kognitiv imkoniyatlarga ega bo‘lgan samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘yin jarayonida o‘yinchi tomonidan har bir yurishning oldindan puxta rejalashtirilishi, mavjud vaziyatning ko‘p bosqichli tahlil qilinishi hamda ehtimoliy variantlar orasidan eng optimal qarorning tanlab olinishi mantiqiy operatsiyalar tizimining izchil faollashuviga olib keladi. Bunday faoliyat natijasida o‘quvchilarda sabab-oqibat munosabatlarini anglash, tahliliy xulosalar chiqarish, shuningdek, strategik fikrlash asoslarini shakllantirish jarayoni jadallashadi.

Shaxmat o‘yinida yuzaga keladigan turli murakkab vaziyatlar o‘quvchilarning muammoli holatlarni aniqlash, ularni tahlil qilish hamda oqilona yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, o‘yin davomida qaror qabul qilish zaruriyati o‘quvchilarning oldindan rejalashtirish, ehtimoliy natijalarni prognozlash va ularni baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida analitik tafakkurning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [8-268].

Bundan tashqari, shaxmat o‘yini o‘quvchilarning diqqatni jamlash va tafakkur faoliyatini faollashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin jarayonida o‘yinchi nafaqat o‘zining harakatlarini, balki raqib tomonidan amalga oshirilishi

mumkin bo‘lgan yurishlarni ham muntazam ravishda kuzatib borishi, ularni tahlil qilishi va baholashi talab etiladi. Mazkur jarayon diqqatning barqarorligini ta’minlash, tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda vaziyatni kompleks baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijada, shaxmat bilan tizimli ravishda shug‘ullanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, analitik tafakkur va strategik rejalashtirish ko‘nikmalarining sezilarli darajada rivojlanishiga olib keladi. Bu esa nafaqat ularning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatiga, balki kundalik hayotda ham ongli va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxmat o‘yini o‘quvchilarning kognitiv jarayonlari, xususan, xotira va diqqatning rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi samarali intellektual faoliyat turi sifatida ilmiy adabiyotlarda keng e’tirof etilgan. Mazkur o‘yin jarayonida o‘quvchi tomonidan turli kombinatsiyalarni eslab qolish, ilgari qo‘llanilgan strategik yondashuvlarni xotirada saqlash hamda ularni muayyan vaziyatlarda maqsadga muvofiq tarzda qo‘llash zaruriyati yuzaga keladi. Bunday faoliyat esa qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira mexanizmlarining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, murakkab o‘yin vaziyatlarini eslab qolish, ularni qayta tahlil qilish va umumlashtirish o‘quvchilarning eslab qolish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda ularning kognitiv moslashuvchanligini mustahkamlaydi [11-114].

Shu bilan birga, shaxmat o‘yini o‘quvchilarda diqqatning barqarorligi va davomiyligini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. O‘yin jarayonida yuzaga keladigan har qanday e’tiborsizlik yoki chalg‘ish noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkinligi sababli, o‘yinchi doimiy ravishda o‘z diqqatini boshqarib borishga majbur bo‘ladi. Natijada, shaxmat bilan muntazam shug‘ullanuvchi o‘quvchilarda diqqatni jamlash, e’tiborni samarali taqsimlash hamda o‘zgaruvchan vaziyatlarni tezkor anglash kabi muhim psixologik ko‘nikmalar izchil shakllanadi.

Mazkur jarayonlarning rivojlanishi o‘quvchilarning umumiy o‘quv faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi, murakkab axborotlarni qayta ishlash qobiliyatini kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishiga zamin yaratadi.

Shaxmat o‘yini strategik fikrlashni rivojlantirishda eng samarali pedagogik va kognitiv vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin jarayonida o‘yinchi bir nechta yurishlarni oldindan puxta rejalashtiradi, raqibning ehtimoliy harakatlarini taxmin qiladi hamda turli variantlarni solishtirib eng maqbul qarorni tanlaydi. Shu tarzda amalga oshiriladigan faoliyat o‘quvchilarda strategik tafakkur, vaziyatni oldindan anglash va prognoz qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. [12-81].

Bundan tashqari, shaxmat o‘yini o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, xatolardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish hamda kelajakdagi harakatlarni puxta rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yin jarayonida har bir qarorning bevosita natijaga ta’sir qilishi o‘quvchini mustaqil qaror qabul qilishga majbur qiladi. Shu sababli, muntazam shaxmat bilan shug‘ullanish o‘quvchilarda mas’uliyat hissi, qat’iyatlilik va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [5].

Ilmiy tadqiqotlar va manbalar tahliliga ko‘ra, shaxmat bilan tizimli shug‘ullanish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash va xotira jarayonlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, strategik tafakkur va analitik fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida shaxmat o‘yini o‘zining integrallik va samaradorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Qiyosiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, shaxmat o‘yinida diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlari yuqori darajada rivojlanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va strategik rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda shaxmat o‘yini samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot jarayonida sinaluvchilarning individual psixologik va kognitiv xususiyatlarini aniqlash maqsadida maxsus diagnostik vositalar tizimidan foydalanildi. Ushbu tizim tarkibiga psixologik testlar, shaxmat o‘yiniga oid amaliy mashg‘ulotlar hamda turli darajadagi mantiqiy masalalarni yechishga qaratilgan topshiriqlar kiritildi. Mazkur metodlar yordamida olingan natijalar sonli ko‘rsatkichlar sifatida ifodalanib, ularning umumiy tahlilini amalga oshirish maqsadida maxsus jadval tizimiga kiritildi.

Tadqiqot doirasida yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish jarayonining samaradorligini aniqlash uchun tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Ushbu tajriba jarayonida shaxmat o‘yini asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar qo‘llanilib, ularning natijalari nazorat guruhi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba sinfi tarkibiga 260 nafar o‘quvchi, nazorat sinfi tarkibiga esa 190 nafar o‘quvchi jalb qilindi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida yoshlarning intellektual rivojlanish ko‘rsatkichlari foizlarda aniqlanib, ular maxsus jadvalda tizimli ravishda aks ettirildi. Mazkur jadval orqali sinaluvchilarning rivojlanish darajasi, ularda kuzatilgan o‘zgarishlar va qo‘llanilgan diagnostik vositalar natijalari bir butun sifatida tahlil qilindi. Shu tarzda, metodologik yondashuvning samaradorligi va uning o‘quv jarayonidagi amaliy ahamiyati ilmiy asosda tasdiqlandi.

Sinflar	**Yoshlari soni**	**O’zlashtirish darajalari**		
		Yuqori	**O’rta**	**Past**
Tajriba sinfi	260	70	100	90
Nazorat sinfi	190	60	40	90

Yoshlarida intellektualni takomillashtirib o’qitish smaradorligini aniqlash yuzasidan tajribadan keyingi o’zlashtirish natijalari.

Sinflar	**Yoshlari soni**	**O’zlashtirish darajalari**		
		Yuqori	**O’rta**	**Past**
Tajriba sinfi	260	100	90	70

Nazorat sinfi	190	90	60	40

Mazkur maqolada shaxmat o‘yinining o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri ilmiy adabiyotlar tahlili asosida kompleks tarzda o‘rganildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxmat o‘yini mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash, xotira va strategik tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘yin o‘quvchilarda analitik fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishdagi o‘rni bilan ajralib turadi.

Ilmiy manbalarga asoslanib, shaxmat bilan muntazam shug‘ullanuvchi o‘quvchilarda diqqatning barqarorligi, xotira hajmi va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati yuqori darajada rivojlanganligi aniqlangan. Shaxmat o‘yini jarayonida har bir yurish puxta rejalashtiriladi va amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarda vaziyatni baholash, oldindan prognoz qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada, shaxmat bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilarda nafaqat o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyat, balki kundalik hayotdagi faoliyatda ham intellektual samaradorlik sezilarli darajada oshadi.

Bundan tashqari, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaxmat o‘yini o‘quvchilarning o‘quv faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida shaxmat mashg‘ulotlarini tizimli ravishda tashkil etish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, diqqat va xotira jarayonlarini mustahkamlash hamda strategik tafakkurini rivojlantirishda dolzarb ahamiyatga ega. Shu sababli, shaxmat o‘yinini ta’lim jarayoniga keng joriy etish pedagogik amaliyotning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Xulosa va takliflar. Shaxmat o‘yini, o‘zining murakkab va ko‘p qirrali tabiatidan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida samarali vosita sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxmat bilan muntazam shug‘ullanish jarayoni nafaqat o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini, diqqatni jamlash qobiliyatini va xotira funksiyalarini, balki ularning strategik rejalashtirish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bilan birga, shaxmat o‘yini mustaqil qaror qabul qilish, murakkab va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, ijodiy yondashuvni shakllantirish jarayonlarida ham muhim pedagogik vosita vazifasini bajaradi.

Kelajakdagi pedagogik tadqiqotlar shaxmat o‘yinining o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini kuchaytirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi samaradorligini yanada chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilishi zarur. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, shaxmat o‘yiniga o‘rgatish jarayoni yoshlarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lib, mazkur jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Xotira, diqqat, tafakkur va boshqa kognitiv komponentlar bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanadi, bu esa o‘quvchilarning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shaxmat mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar turli strategik vaziyatlarni tahlil qilish, ularning oqibatlarini oldindan prognozlash va eng maqbul qarorlarni qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu jarayonda ular nafaqat ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini rivojlantiradi, balki mantiqiy fikrlashni ham chuqurlashtiradi. O‘quvchilar diqqatni jamlash, qat’iyatlilik, mustaqil qaror qabul qilish va maqsad sari intilish kabi shaxsiy sifatlarni shakllantiradilar. Bundan tashqari, shaxmat bilan muntazam shug‘ullanuvchi o‘quvchilar tanqidiy tahlil qilish, murakkab vaziyatlarda oxirigacha kurashish va muvaffaqiyatsizliklarga bardoshli bo‘lish kabi hayotiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Shaxmat faoliyatini ta’lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiyalash pedagogik jarayonning metodik samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Jumladan, yoshlarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida ularni taqqoslash, tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tasniflash, o‘xshashlik va farqlarni aniqlash kabi murakkab fikrlash operatsiyalarini izchil o‘zlashtirishga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari va malakalar tizimini shakllantirish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, yoshlarni fikrlash jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy xatolarni aniqlash va ularga tanqidiy munosabat bildirishga o‘rgatish ham pedagogik ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur darajasini diagnostika qilish, ularning bilish faoliyatini motivatsion jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, shaxmat mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan mantiqiy vazifalar tizimini o‘qituvchi tomonidan metodik jihatdan ishlab chiqish zarurati mavjud.

Shaxmat darslarini tashkil etishda o‘quv materiallarini izchil va tizimli shaklda tuzish, ularni mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vazifalari bilan uyg‘unlashtirish ham muhim metodik talab sifatida qaraladi. Bu esa yoshlarning mantiqiy fikrlash darajasini nazorat qilish, boshqarish va zarur hollarda pedagogik korreksiya kiritish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, shaxmat o‘yinini ta’lim jarayoniga keng joriy etish uning pedagogik samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlashning strategik vositasi sifatida ahamiyatini saqlab qoladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxmat o‘yini o‘quvchilarning intellektual rivojlanishida samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni isbotladiki, shaxmat bilan muntazam shug‘ullanish o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur, strategik rejalashtirish, diqqatni jamlash va xotira jarayonlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘yin jarayoni o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxmat mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar turli strategik vaziyatlarni oldindan baholash, ularning oqibatlarini prognoz qilish va eng maqbul qarorlarni tanlash ko‘nikmalarini egallaydi. Bu jarayon nafaqat ko‘rgazmali-obrazli tafakkur, balki mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shuningdek, shaxmat bilan muntazam shug‘ullanuvchi o‘quvchilarda qat’iyatlilik, maqsad sari intilish, tanqidiy tahlil qilish va muvaffaqiyatsizliklarga bardoshlik kabi shaxsiy sifatlar mustahkamlanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Shaxmat mashg‘ulotlarini ta’lim jarayoniga tizimli integratsiyalash orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri va kognitiv salohiyatini rivojlantirish.
- Yoshlarni fikrlash operatsiyalarini chuqur egallashga yo‘naltirish: taqqoslash, tahlil, sintez, umumlashtirish, tasniflash hamda o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.
- O‘quvchilarda mantiqiy xatolarni aniqlash va ularga tanqidiy munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish.
- Shaxmat darslarini izchil va tizimli tarzda tashkil etish, ularni mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vazifalari bilan uyg‘unlashtirish.
- O‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini diagnostika qilish va ularning bilish faoliyatini motivatsion jihatdan qo‘llab-quvvatlash.
- Tadqiqot natijalariga asoslanib, shaxmat mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik metodlar va didaktik materiallarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi “Shaxmatni yanada shaklantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4954-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 5 avgustdagi Shaxmatni yanada ommalashtirish va shaklantirish bo’yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida" PQ-347-son qarori.
3. Барташников А. Психологические особенности и формирование оперативной памяти у школьников и шахматистов. Дисс. канд. псих. наук. - М., 1988. - 211 с.
4. Вершинин М. А. Теория проектирования системы формирования логического мышления шахматистов: дис.доктора педагогических наук, Волгогр. гос. акад. физ. культуры. – Волгоград, 2005. -506 с.
5. Габбазова А.Я.Интеллектуальное развитие детей младшего актуальное развитие детей младшего школьного возраста в процессе обучения шахматной игре : Дисс. канд. псих. наук. 19.00.07: М., 2005 151 с. РГБ ОД, 61:05-19/671.
6. Гришин В. Г. Дети играют в шахматы: Кн. для воспитателей дет. сада и родителей. 2-е изд., дораб. -М.: Просвещение: АО “Учеб. лит.”, 1995. -159 с.
7. Sultanov X. S. Shaxmat va intellektual rivojlanish. Latin American Journal of Education https://doi.org/10.5281/zenodo.18724787 Lat. Am. J. Educ. 6, 2 (February, 2026) 328-333 bet
8. Князева В. В. Структура и содержание учебного предмета шахматы в системе общеобразовательной школы России. - Дисс. на соиск. д.п.н., М.: 2000. -410 с.
9. U Xoliqov Boshlang’ich sinf yoshlarda shaxmat o‘rgatish orqali mantiqiy fikrlash va shaxsiy sifatlarini baholashning innavotsion usullari O'rta Osiyo ta'lim va

innovatsiyalar jurnali 1 (2), 28-37
10. U.K Khalikov Pedagogical value of developing playing chess among primary schoolchildren Bulletin of Gulistan State University 2021 (2), 17-23
11. Тарасова О. В. Педагогические условия формирования логической культуры младших школьников средствами шахматной деятельности: Дис . канд. пед. наук. - Казань, 2005. — 209 с.
12. Огнева Т.А. Диагностика уровня дифференци рованно стизрительного восприятия у первоклассников /«Возможностипрактической психологии в образовании. Из опыта работы психологовУЦ «перспектива». Вып. 3. Ред. Пилипко Н.В. М.: УЦ «Перспектива»,2001. С. 78-84.